

**«HARBIY- VATANPARVARLIK TARBIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI».**



**Abdusalomov Ulug'bek Sattarovich**

FarDU Harbiy ta'lif fakulteti  
o'qituvchisi



**ELSEVIER**



**Received:** 22-11-2022

**Accepted:** 22-11-2022

**Published:** 22-11-2022

**Abstract:** ushbu maqolada yoshlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirish, ularni harbiy xizmatga, o'z Vatani -O'zbekiston Respublikasini ximoya qilishdagi burchlarini bajarishga xar tomonlama tayyorlash -o'quv yurtlari pedagogik jamoalarining muxim vazifalaridan biri ekanligi aytilib o'tilgan.

Bu vazifani muvafaqqiyatlari ravishda yechish uchun Harbiy ta'lif mutaxassisligi bo'yicha o'qitilayotgan «Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari» fani yaqindan yordam beradi.

**Keywords** Harbiy-vatanparvarlik, Qurolli Kuchlar, yoshlar, tarbiya, ta'lif, yuksakklik, kelajak avlod

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

«Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari» ni o'rganish predmeti bo'lib, yoshlar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining uslubiy va mafkuraviy-nazariy asoslari, o'quv yurtidagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tizimi, o'quvchi yoshlarni Qurolli Kuchlar xizmatiga, Vatan ximoyasiga ma'nnaviy-siyosiy, psixologik, harbiy-texnik va jismoniy tayyorlashni tashkillash, uning mazmuni, shakl va uslublari bo'lib xisoblanadi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslarining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar xisoblanadi:

birinchidan, oliy o'quv yurtida o'qitilayotgan boshqa fanlar bilan uzviy birlikda, talabalarni milliy va baynalminal ruxida tarbiyalash, ularni Vatan ximoyasiga doimo qo'lda qurol bilan shay bo'lishlarini ta'minlash;

ikkinchidan, talabalarda faol ongli, mehnatsevar, Vatan uchun jasoratga va qaxramonlikka tayyor yosh avlodni tarbiyalay oladigan pedagog o'qituvchi xislatlarini rivojlantirish;

uchinchidan, talabalarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini nazariy-amaliy bilimlari bilan qurollantirish, ularda umumiyl o'rta talim maktablarida chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisi lavozimida ishlash uchun o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkillash va o'tkazish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.

Ushbu fan bo'yicha talabalar kurs imtihonini topshiradilar, fanning asosiy mazmuniy savollari davlat imtihoniga kiritiladi.

O'qish mobaynida har bir talaba mustaqil ravishda harbiy-vatanparvarlik mavzusida 4-5 ta ma'ruza yozishi, o'rta maktablarda harbiy talim asoslari bo'yicha biror bir to'garakka raxbarlik ishlarida qatnashishi kerak.

«Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asoslari» fani bo'lajak harbiy talim raxbarlariga Vatan ximoyasiga tayyor bo'lgan munosib yosh avlodni yuqori darajada tayyorlash uchun yaqindan yordam beradi.

**Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi-yoshlar umumiylar tarbiyasining tarkibiy bir qismidir.**

«Vatan», «Vatanparvarlik» deganda biz nimani tushunamiz?

«Vatan» -bu ming yillar mobaynida sayqallanib, kishilar ruxiga ilxom beruvchi, mard o'g'lonlarni jasoratga, kerak bo'lsa ona-zamin uchun jonlarni fido etishga undovchi muqaddas bir tuyg'udir.

«Vatan» -bu bizning oila, uyimiz, yashab turgan maxallamiz, qishlog'u-shaxrimiz va, albatta, bu Ona O'zbekistonimizdir.

Shu o'rinda, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovni -O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 3-sessiyasida so'zlagan nutqidan quyidagi so'zlarni ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir: «Odamlarimiz, jamiyatimiz mafkurasida Vatan, yurt g'oyasi ustivor bo'lmosg'i kerak. Milliy g'urur, milliy iftixor xar qanday ishimizning poydevori bo'lmosg'i kerak».

Bu muqaddas g'oyalari, millati va etiqodidan qatiy nazar, shu yurtda, shu zaminda yashayotgan xar bir inson, xar bir fuqaroning xayotiga, ongiga singmog'i, xar birimiz uchun eng katta tayanchga, eng katta ishonchga, boringki, xaqiqiy iymonga aylanishi kerak».

Istiqlolni ximoyalash, uni qadrlash, ulug'lash va unga xizmat qilish milliy ongimizga, aqidamizga aylansagina, bizni tanlagan yo'limizdan xech qanday kuch qaytarolmaydi, qaddimizni bukolmaydi.

Bu buyuk g'oyalari xar birimizning qonimizga, qalbimizga singib, kelajak avlodlarga muqaddas boylik -muqaddas meros bo'lib o'tishi kerak.

Bunday g'oyalari bizlarga «Vatanparvarlik» so'zi qanday mazmunga, moxiyatga ega ekanligini, «Vatanparvar» qanday bo'lishi kerakligini to'la-to'kis ochib beradi.

Biz «Vatanparvar», «Millatsevar» degan so'zlarni eshitganimizda beixtiyor ko'z oldimizda buyuk ajdodlarimiz bo'l mish Shiroq, To'maris, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi, Namozbotir va buyuk soxibqiron Amir Temur qiyofalari gavdalaniadi.

Biz ham ular singari Vatan uchun, o'zbek xalqi uchun munosib avlod bo'lishga xarakat qilamiz.

Yaqin o'tmishimizdan, sho'rolar xukumati vaqtida yashab o'tgan millatimizning asil o'g'lonlari Usmon Nosir, Fitrat, Cho'lpon va boshqa buyuk siymolar oldida bosh egamiz. Ularning vatanparvarligi, jasurligi, o'zbek xalqining yorqin kelajagi uchun jonlarini fido etganliklari, ularni millat ravnaqi uchun yashab, kurashib o'tgan xayotlari biz yosh avlod uchun bir xayot maktabi - vatanparvarlik maktabi bo'lib qoladi.

Mustaqillik, mustaqil suveren davlatning tuzilishi -bu xar bir xalqning asriy orzusi -umidlarining, muqaddas maqsadlarining ro'yobga chiqishidir. O'zbekiston xalqi 1991 yil 31 avgustda o'zining davlat mustaqilligini elon qildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil, to'la xuquqli, suveren davlat O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1991 yil 1 sentyabrni Mustaqillik kuni bayrami deb elon qildi. Shu kundan boshlab biz Vatan degan tuyg'uni to'la-to'kis xis etdik.

Xalqimizning mustaqil Vatan uchun fidokorona kurashlari ro'yobga chiqib, biz o'z Ona Vatanimizga, tilu-dinimizga ega bo'ldik.

Xar bir avlod el yurtining tarixini va obro'ini, o'zining farzandlik muxabbati va etiqodi, sadoqati va buniyodkorligi, matonati va mardligi bilan barpo etadi.

Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati, manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, axil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha asrab-avaylab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashni oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun belgilash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va xar bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir.

Milliy istiqlol mafkurasi -O'zbekistonning mustaqillikka erishish xaqidagi siyosiy, ilmiy, nazariy, tarixiy, falsafiy, badiiy va diniy qarashlar majmui, xalqni kelajakka ishonch, e'tiqod ruxida tarbiyalovchi g'oyaviy qurol, barcha toifa kishilarni shu maqsad yo'lida birlashtiruvchi g'oyat qudratli ma'naviy omil xisoblanadi. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy moxiyati quyidagilardan iborat:

- xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, ruxiyatiga, tiliga, diniy mos g'oyalar asosida odamlar ongiga kelajakka ishonch, mexr-muxabbat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini singdirish;

- milliy istiqlol mafkurasi orqali xalqimizda o'zining qudrati va ximoyasiga suyangan xolda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jaxon hamjamiyatida, ilg'or davlatlar orasida teng xuquqli va munosib o'rinnegi egallashga intilish xissini tarbiyalash;

- sog'lom, ma'naviy boy, komil avlodni shakllantirish.

Milliy istiqlol mafkurasining negizini vatanparvarlik, erkinlik, milliy iftixon, insonparvarlik, baynalmilallik kabi xususiyatlar tashkil etadi.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, o'zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lida aniq marralarni ko'zlab yashashimizda, pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruxiy-ma'naviy kuch-qudrat manbai, ilmiy asos, bu milliy g'oya, milliy mafkura bo'lishi shart.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgan dastlabki kunlardan boshlab, bu masalaga aloxida etibor berilib kelinmoqda. Milliy mafkuraning xayotimizdagi o'rnini belgilash, uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, mafkuraviy tarbiyaviy yo'naliishlarini ishlab chiqish, shu asosda jamiyatimizda ijtimoiy fikrni shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan ishlardan barcha xabardor.

Zero, davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat avvalo aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog'i lozim. O'z milliy g'oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo'lishi, o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi muqarrar.

Xar bir insonning, ayniqsa, endigina xayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrlarni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobit qadam g'ayrat shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mexnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir.

Bizning bugungi eng buyuk vazifamiz va muqaddas burchimiz -O'zbekiston tarixidan o'zimizga munosib saxifa ochish va uni avlodlarimiz uchun ibrat bo'ladigan oliyjanob va savobli ishlar bilan to'ldirishdir.

Mana shu so'zlar buyuk maqsadlardan kelib chiqqan xolda bizlar ham o'z oldimizga asosiy vazifalarni belgilab olishimiz kerak. Bizlarni, ya'ni bo'lajak harbiy talim o'qituvchilarni, asosiy vazifamiz -mana shu mustaqil Vatanni jon-jonidan sevuvchi, uning ravnaqi va ozodligi, xalqi uchun jasoratga, kerak bo'lsa jonini fido etishga tayyor bo'lgan, elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan mard o'g'lolnarni, o'zbek vatanparvarlarini tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Bu tarbiya, albatta umumiy tarbiyani axloqiy, mexnat, estetik, ma'naviy, jismoniy turlari bilan uzviy bog'liqlikda olib borilishi kerak.

Yuqorida aytib o'tilgan tarbiya turlari orasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi muxim o'rinni egallaydi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni Ona-Vatanga, uning shonli tarixiga, tinchlikparvar va bunyodkor xalqiga sadoqat va muxabbat ruxida tarbiyalashi kerak.

Chaqiriqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik mashg'ulotlarida, harbiy-vatanparvarlik va ommaviy-mudofaa tadbirlarida o'quvchi yoshlarni Qurolli Kuchlardagi bo'lajak xizmatlari va Vatanimiz ximoyasi uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'zlashtiradilar. Ular bu mashg'ulotlar va tadbirlar davomida harbiy ish va xizmat asoslarida dastlabki ma'lumotlarni oladilar. Yoshlar Qurolli Kuchlarimiz tarixini, uning bugungi kundagi Vatanimiz mustaqilligini ximoya qilishdagi faoliyati, Qurolli Kuchlar turlari va ularni vazifalari, Qurolli Kuchlardagi xizmat qilish tartiblarni va boshqa ko'p zarur bo'lgan bilimlarni chuqur o'rganadilar.

Shunday qilib, Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik mashg'ulotlari va ommaviy-mudofaa tadbirlari yoshlarni harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida muxim ahamiyatga ega bo'lib, ularni Vatan ximoyasiga tayyorlash dasturining asosiy o'zagini tashkil etadi.

### **Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va uslubiy asoslari.**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tashkiliy huquqiy asosi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mudofaa to'g'risida»gi Qonun, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonun, "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash" Konsepsiysi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi, Vatanga Qasamyod, Umumharbiy nizomlar va davlat idoralari, vazirliklarining bu sohadagi me'yoriy hujjatlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2014 yil 18-dekabrdagi 348-sonli "O'zbekiston Respublikasi yoshlarini harbiy xizmatga tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi qarori tasdiqlangan. Mazkur qarorning ilovasiga binoan, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqilgan.

Shuningdek, Vazirlar mahkamasining 2020 yil 10 iyundagi 369-sonli "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Bugungi kundagi vaziyat yoshlarning Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor bilan yondoshishni talab etmoqda. Chunki, mamlakatimizning ravnaqi, uning ertangi kungi havfsizligi, aynan bugungi yoshlar zimmasidadir. Quyida biz yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruxida tarbiyalash konsepsiyasini ko'rib chiqamiz.

### **Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari.**

Barcha ijtimoiy-siyosiy faoliyat singari, harbiy-vatanparvarlik ishida ham ma'lum bir sistema, shakliy uslub mavjuddir.

U aniq bir vazifalarni, shakl va uslublar mazmunini, vositalarni, shuningdek, o'ziga xos vazifalarni bajaruvchi davlat va jamoat korxona, tashkilot va muassasalarini o'z ichiga oladi.

Bu sistema, shakl, birinchidan, kompleks xususiyatga ega, yaxni vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish barcha o'quv-tarbiya muassasalarining vazifasidir.

Ikkinchidan, u uzluksizdir, chunki inson xayotining barcha davrlarida o'z tasir kuchida bo'ladi.

Uchinchidan, u to'liq bir shakldir, chunki u tarbiyaning barcha turlariga hamda armiya va xalqning birligiga tayanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan uch yo'nalish harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi sistemasining o'zagini tashkil etadi.

Buni quyidagi sharxlar bilan yoritib berish mumkin:

1. Qachonki, qaysi bir davlat yoki armiya shaxsiy tarkibi ma'naviy-axloqiy- va ruhiy jihatdan turg'un bo'lsa, ular o'z Vatanlariga cheksiz muxabbat va qo'shinlariga sadoqatda bo'lsa, ular o'z ishlarini xaq ekanliklariga chuqur ishonishsa, bu xaq ish uchun, jonlarini ham fido etishga tayyor bo'lsalar, bunday xalq yoki qo'shin xech qachon yengilmaydi. Chunki, ular ma'naviy-axloqiy jixatdan yetuk, psixologik jixatdan esa turg'un insonlardir. Bunday insonlar mashaqqatlar, qiyinchiliklar oldida esankiramaydi, ikkilanmaydi, aksincha, ular bor shijoatlari ila va barcha vositalar bilan faqat g'alaba uchun kurashadilar.

Tarixdan bizga ma'lumki, ko'p urushlar natijasi oxir-oqibatda jang qilayotgan tomon qo'shinlarining ruxiy xolatida bog'liq bo'lgan.

Demak, shunday ekan, bizning vazifamiz O'z Vataniga cheksiz sadoqatda bo'lgan, ruxiy jixatdan yetuk, turg'un yosh avlodni tarbiyalash, ulardan Vatan ravnaqi uchun, mustaqilligi uchun, zarur bo'lsa jonini fido etishga tayyor bo'lishdek xislatlarni shakllantirishdir.

2. Armiya shaxsiy tarkibi nafaqat ma'naviy-axloqiy va ruxiy jixatdan, balki harbiy-texnik tayyorgarligi jixatidan ham yuqori saviyada tayyorlangan bo'lmog'i kerak. Bu shaxsiy tarkib harbiy bilimlar, malakalarni egallamog'i, ular intizomiy va tartibli bo'lishlari, harbiy qasamyod va nizom talablarini so'zsiz bajarishlari, qo'l ostidagi jangovar texnika va qurollardan moxirona foydalana olishlari kerak deganidir.

Albatta, yuqorida aytilib o'tilgan barcha jangovar xislatlar, yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan

harbiy-texnik tayyorgarlikda shakllantiriladi.

Bu ishlarni amalga oshirishda harbiy-texnik jixatdan yuqori darajada tayyorlangan chaqiriluvchi yoshlarni tarbiyalashda Chaqiriqqacha yoshlar tayyorgarligi mashg'ulotlari, «Vatanparvar» tashkiloti qoshidagi to'garaklar o'zlarini ulkan xissalarini qo'shishlari kerak.

### Xulosa

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, -O'zbekiston xalqi buyuk davlat, jamiyat qurilishi yo'lida mardonavor mexnat qilmoqda.

Bizning kundalik vazifamiz, yoshlarni ana shu qurilishlar jarayoniga jalb qilish, ular ongiga -O'zbekistonning buyuk kelajagi aynan, yoshlar qo'lida ekanligini singdirish, kundalik mashg'ulotlar, turli tadbirlar davomida ularda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularini uyg'otish va bu tuyg'ularni asrabavaylab tarbiyalashdir. Barchamizga yaxshi ma'lumki, xozirgi kunlarda bizning mintaqamizda, xususan, Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ahvol keskin bo'lib qolmoqda.

Turli diniy ekstremistik, aqidaparast guruxlarning xokimiyat uchun kurashishi, ularni bizning jamiyat uchun umuman yot bo'lgan dunyoqarashlarini targ'ib qilishi Vatanimiz mustaqilligiga, uning tinchliksevar ko'p millatli xalqiga xavf tug'dirishi mumkin.

Bu guruxlarning yoshlar o'rtasida olib borayotgan buzg'unchilik targ'ibotlari xech kimni befarq qoldirmasligi kerak.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, «Yoshlar uchun kurashish kerak». Bu kurash bizning xar bir mashg'ulotlarimizda, o'tkazayotgan tadbirlarimizda o'z aksini topishi, qisqasini aytganda esa harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlarining bosh nizomi bo'lib qolishi kerak.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Muratovich, L. C. M. A. (2022). OBJECTIVE PRINCIPLES OF MILITARY PATRIOTIC EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(7), 40-41.
2. Муратович, П. М. А. (2022). Средняя Азия в конце XVIII – первой половине XIX в. *Gospodarka i Innowacje.*, 20, 62-63.
3. Mamadzhanov, A. M. (2021). Patriotism-The Basis of The Formation of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 130-132.
4. Мамаджанов, А. М. (2021). Патриотическое Воспитание Как Фактор Совершенствования Человека Как Личности. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 62-65.
5. Muratovich, M. A. AJMR. AJMR.
6. Sattarovich, A. U. (2022). We Should Follow the Example of Our Ancestors in Patriotism. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 6, 24-26.
7. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). THE ROLE OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN PROMOTING THE IDEAS OF RELIGIOUS TOLERANCE AND INTERNATIONAL HEALTH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 970-972.
8. Muratovich, L. C. M. A. (2022). OBJECTIVE PRINCIPLES OF MILITARY PATRIOTIC EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(7), 40-41.
9. Муратович, П. М. А. (2022). Средняя Азия в конце XVIII – первой половине XIX в. *Gospodarka i Innowacje.*, 20, 62-63.
10. Mamadzhanov, A. M. (2021). Patriotism-The Basis of The Formation of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 130-132.
11. Мамаджанов, А. М. (2021). Патриотическое Воспитание Как Фактор Совершенствования Человека Как Личности. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 62-65.

12. Muratovich, M. A., & Sardorbek No'monjon o'g', S. (2022). TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINING ASOSIY VAZIFALARI VA YO'NALISHLARI, HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASIDAGI SAMARADORLIKKA ERISHISH YO'LLARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 8-11.
13. Muratovich, M. A. (2022). HARBIY TA'LIM FAKULTETLARIDA HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 91-94.
14. Muratovich, M. A. (2022). MILLIY ISTIQOL G 'OYASI ASOSIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINI O 'QUVCHI YOSHLARGA SINGDIRISH YO'LLARI VA USULLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(8), 803-805.
15. Muratovich, M. A. (2021). On the issues of creation of dictionaries on the discipline "Initial Military Education" for university students. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 67-69.
16. Mamadzhanov, A. M. PATRIOTISM-THE BASIS OF THE FORMATION OF SOCIETY.
17. Muratovich, M. A. AJMR. AJMR.
18. Khaydarov, B. Y. (2021). The meaning and methods of determining the composition of the human body. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1085-1089.
19. Boxodirjon, X. (2022). ODAM TANA TUZILISHINI TAXLIL QILISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 108-114.
20. Хайдаров, Б., & Алижонова, Д. (2022). ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ ГИМНАСТИК МАШҚЛАР ТЕХНИКАСИГА ТАЪСИРИ. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 104-107.
21. Хайдаров, Б., & Алижонова, Д. ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ ГИМНАСТИК МАШҚЛАР ТЕХНИКАСИГА ТАЪСИРИ. MATERIALLARI TO 'PLAMI, 112.
22. Sobirov, O. F., & Abdusalomov, U. S. (2019). ROLE OF TEACHER IN SOCIETY. Мировая наука, (11), 59-60.
23. Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (12-1), 10-13.
24. Sattarovich, A. U. (2022). We Should Follow the Example of Our Ancestors in Patriotism. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 6, 24-26.